


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVASIYALAR
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

№ 23/11-11/2

2023yil "31" 08



"TASDIQLAYMAN"

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti

O.A. Ataniyazova

2023 yil

GIGIENA. TIBBIY EKOLOGIYA FANIDAN
MODUL DASTURI

Bilim sohasi:	900000	- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910000	- Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi:	60910300	- Pediatriya ishi

Fan/modul kodi	O'quv yili 2023-2024	Semestr 5	Kreditlar 4,5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili Qoraqalpoq/Uzbek/Rus		Haftadagi dars soatlari 5	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Gigiena. Tibbiy ekologiya	108		54	162

2. Fanning mazmuni.

Gigiena. Tibbiy ekologiya. Harbiy gigiena moduli o'quv rejaning klinika oldi fanlar blokiga taaluqli bo'lib, 3 kursda o'qitiladi. Gigiena. Tibbiy ekologiya. Harbiy gigiena moduli gigiena sohasidagi ilm-fan va amaliyotning zamonaviy yutuqlarini, sog'liqni saqlash sohasidagi qonunchilik asoslarni o'rgatadi.

2.1. Fanning maqsadi – aholi salomatligiga tashqi muxit omillarini ta'sirini o'rganish mehnat, dam olish, yashash, o'qitish va tarbiyalashning yaxshi sharoitlarini, to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini yaratish. Harbiy xizmatchilar organizmiga mehnat sharoitlarining o'ziga xos ta'sirini o'rganish, harbiy xizmatchilarning jangavorlik holatining yuqori darajada bo'lishini ta'minlashdir.

Fanning vazifalari:

- Organizmning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasining asoslari, gigienik reglamentlash qoidalari, tashqi muxit omillarining kasallanishlar kelib chiqishi va rivojlanishidagi ahamiyati bilan talabalarni tanishtirish;
- Talabalarga tashqi muxit omillarini tekshirish, gigienik baholashga fizikaviy, kimyoviy, ijtimoiy-gigienik omillarni yaxshilash asoslarini o'rgatish;
- Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanganligini baholash, ovqatlanishning, chiniqtirishning, ta'lim va tarbiyaning gigienik asoslarini o'rgatish.
- Harbiy xizmatchilar uchun sog'lom mehnat, maishiy va dam olish sharoitlarini yaratishga yo'naltirilgan tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirib qo'shinlar jangovor holatini saqlab qolish.

3. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

3.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1. Kirish. Gigiena fani va uning vazifalari, ekologiya. Gigiena fanining o'rganadigan ob'ektlari, usullari maqsad va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi; O'zbekiston Respublikasida bu fanning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan gigienist-olimlar.

2. Ratsional ovqatlanishga gigienik talablar. Aholining ovqatlanish bo'yicha statuslari. Ratsional, adekvat va balanslangan ovqatlanish haqida tushunchalar. Oqsil, yog', uglevodlar, vitaminlar va mineral tuzlarning ovqatlanishdagi biologik ahamiyati. Oziq moddalarining manba'lari, aholining ovqatlanishdagi meyorlari.

3. Atmosfera havosining gigienik ahamiyati. Atmosferaning qatlamlari, ularning ahamiyati. Atmosfera havosining fizikaviy, kimyoviy xususiyatlari. Iqlim, ob-havo, iqlim hosil qiluvchi omillar. Meteotrop reaksiyalar. SHaharlarda havoni ifloslantiruvchi manba'lar

va ularning aholi salomatligiga ta'siri. Atmosfera havosini ifloslanishdan muhofaza qilish tadbirlari. Ekologiya.

4.Suv va tuproq gigienasi. Suvning gigienik, fiziologik va epidemiologik ahamiyati. Aholining suv ta'minoti meyorlari, ichimlik suvining 2011 y. 950-sonli Davlat Standarti. Ichimlik suvi manba'lari, suv ta'minoti tizimlari. Tuproqning atrof muhit omili ekanligi, uning gigienik ta'rifi. Biogeokimyoviy hududlar va viloyatlar haqida tushuncha, bu kasalliklarni oldini olish tadbirlari. «Yashil» iqtisodiyot va «yashil» o'sish siyosati hamda uning asosiy qonuniyatlari.

5.Davolash-profilaktika muassasalariga qo'yiladigan gigienik talablar

Davolash-profilaktika muassasalari (DPM) turlari, turli xil DPM qurilishi uchun joy tanlash, kasalxona qurilishi tizimlari, hududini zonalarga ajratilishi. Maxsus kasalxona bo'limlarini loyihalashtirilishi va qurilishining o'ziga xosliklari: yuqumli, jarrohlik, bolalar, ruhiy DPM va tug'ruqxona.

6.Mehnat gigienasi va kasb kasalliklari profilaktikasi. Mehnat gigienasining tekshirish ob'ektlari. Ishlab chiqarishdagi zararliliklar, tasnifi, ahamiyati. Sanoat changi, tasnifi, chang patologiyalari. Shovqin, tebranish. Kasb kasalliklari, profilaktikasi.

7.Sog'lom turmush tarzining gigienik asoslari. Shaxsiy gigiena- sog'lom turmush tarzining asosi ekanligi. Sog'lom turmush tarzi va uni tashkil etuvchi elementlari haqida tushuncha. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish asoslari. Shaxsiy gigiena. Badan gigienasi va badanni chiqarish

8.Bolalar va o'smirlar gigienasi fani, maqsadi va vazifalari. O'sish va rivojlanish davrlari va qonuniyatlari. Bolalar va o'smirlar muassasalarini loyihalashtirishning gigienik asoslari. O'zbekiston Respublikasida bolalar aholisining asosiy demografik ko'rsatkichlari va u bilan bog'liq muammolar. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari aholi salomatlik darajasining asosiy ko'rsatkichlaridan biri. O'sish va rivojlanish xaqida tushuncha, davrlar va qonuniyatlar. Akseleratsiya.Bolalar va o'smirlar muassasalarining turlari. Umumta'lim maktablari va maktabgacha muassasalarini loyihalashtirishning xususiyatlari. Maxsus bolalar muassasalari, ularning turlari, qurilishining o'ziga xos xususiyatlari.

9. Kasalxonalar rentgen-radiologiya bo'limlarida radiatsion xavfsizlik tadbirlarini tashkil qilish. Ionlashtiruvchi nur turlari, manba'lari. Tabiiy radioaktiv fon, sun'iy manbalar, ularning turlari. Ochiq va yopiq manbalar. Sanitariya dozimetriya nazorati tizimi.

4. Amaliyot, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

4.1. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzulari ro'yxati:

1-mavzu. Odam organizmi energiya sarfini aniqlash.SHaxsiy ovqatlanishni taomnoma taqsimoti tuzib baholash.

2-mavzu: Ovqatlanishning vitaminlar bo'yicha mosligini baholash. «S» vitamin etariligini aniqlash.Oziq-ovqatlar sifatini sanitariya-gigienik tekshiruv (sut, go'sht, konservalar).

3-mavzu: Bolalar va davolash muassasalari ovqat tayyorlash xonalarini gigienik baholash.

4-mavzu: Ovqatdan zaharlanishlar va ularning profilaktikasi.

5-mavzu: Bolalar va davolash muassasalari xonalari mikroiklimini o'rganish. Mikroiklim omillarining organizmga umumiy ta'sirini o'rganish. (Termoregulyasiya).

6-mavzu: Bolalar va davolash muassasalari xonalari havosi tozaligini tekshirish va baholash. Xonalar yoritilishi va insolyasiyasini gigienik baholash.

7-mavzu: Ichimlik suvining organoleptik, fizikaviy xususiyatlari, sanitar-bakteriologik

ko'rsatkichlarni aniqlash va baholash (2011 y 950-sonli Davlat standarti asosida).

8-mavzu: Ichimlik suvining tuzli tarkibining axamiyati. Suvning qattiqligi, flor va temirni aniqlash. Suvni organik ifloslanish ko'rsatkichlari (oqsil uchligi, oksidlanish, xloridlar).

9-mavzu: Ichimlik suv manbaini tanlash. (2011 y 951-sonli Davlat standarti asosida). Ichimlik suvi sifatini baxolash, koagulyasiya va xlorlash ustidan nazorat. Tuprokning fizik mexanik va kimyoviy xususiyatlari.

10-mavzu: Umumiy va mahsus davolash-profilaktika muassasalariga qo'yiladigan gigienik talablar.

11-mavzu: Ishlab chiqarishdagi zararliklar va sanoat changi. Ishlab chiqarishda shovqin va tebranish. Ishlab chiqarishda kimyoviy omillar va ularni organizmga ta'siri. Sanoat korxonalari ishchilariga tibbiy sanitariya xizmat ko'rsatish.

12-mavzu: Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanishini ko'rsatkichlarini o'rganish va baholash. Maktabga etuklik va uni gigienik baxolash. Jismoniy tarbiya darslarida vrach nazorati. Salomatlik guruhlari.

13-mavzu: Maktab va maxsus bolalar muassasalari loyihalarini gigienik baholash. Maktab jihozlari va o'quv qurollarini gigienik baholash. Bolalar muassasalari xonalari sun'iy yoritilishi, bolalarda UBN tanqisligining oldini olish.

14-mavzu: Maktab va maxsus bolalar muassasalarida o'quv tarbiya jarayonini gigienik baholash. Maktabda dars jadvaliga qo'yiladigan gigienik talablar. Dars paytida o'quvchilar organizmi funksional holatini tekshirish

15-mavzu: Maktab o'quvchilari mehnat tarbiyasining gigienik jihatlarini. Kasbga yunaltirish, kasb tanlovi, vrach maslahati. Bolalar va o'smirlar kiyimi va poyafzaliga gigienik talablar.

16-mavzu: Kasalxonalar rentgen-radiologiya bo'limlarida sanitariya- dozimetrik nazorat. Ionlashtiruvchi nur manabalarini bilan ishlaganda xodimlarni himoya qilish tamoyillari.

17-mavzu: Qo'shinlarni kazarma va dala sharoitlarida joylashtirilganda ularning ovqatlanirilishining sanitariya nazorati. Mahsulotlardan namunalar olish. Dala gigienik laboratoriyalari: LG-1, LG-2. Dala sharoitida suv manbaini tanlash. Suv manbaini sanitariya-topografik tavsiflash xaritasi. Dala sharoitida suvning sifatini yaxshilash va uni baholash usullari.

18-mavzu: Harbiy mehnat sharoitlarining sanitariya nazorati. Maxsus qo'shinlar mehnat gigienasi. Tank, bronetexnika, motoo'qchilar RLS va raketa qo'shinlarida organizmga ta'sir etuvchi nomuvofiq omillar.

4.2. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari va laboratoriya jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. "Loyihali o'qitish", "Keys-stadi" va boshqa texnologiyalaridan foydalaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

4.3. Modul davomida egalanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1. Ovqatlanishning adekvatligini baxolash;
2. Kasalxona xonalarining mikroiklimni o'rganish va baholash;
3. Kasalxona xonalari xavosining antropogen kimyoviy ifloslanganligini tekshirish va baxolash (karbonat angdrid gazi misolida);
4. Kasalxona xonalarining tabiiy va sun'iy yoritilganlik holatini baxolash;
5. Ichimlik suvining zararsizlantirilish sifatini tekshirish va baholash;

6. Axoli o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari buyicha ishlarni o'tkazishni;
7. DPM larda davolovchi-ximoyalovchi va sanitar va epidemiologik tadbirlarni ta'minlash uchun sharoitlarni baholash;
8. Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini baholash (regressiya shkalasi, kompleks usuli, sentil shkalasi buyicha);
9. Kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi buyicha tavsiyalar berishni;
10. Davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy xodimlarning salomatligini ta'minlovchi mexnat sharoitlarini tashkil qilishni;
11. Turli qo'shin turlari uchun ovqatning to'la qiymatligini taomnoma bo'yicha baholash.
12. Soldat payogidagi qotgan nonning sifatini tekshiruvdan o'tkazish.
13. YOvvoyi holda o'suvchi o'simliklardan tayyorlangan damlamalarda vitamin S ni aniqlash.
14. Suv manbaini razvedkadan o'tkazish.
15. Suvni oddiy usulda xlorlash uchun xlor dozasi tanlash.
16. Dala sharoitida shaxsiy suv zaxiralarini zararsizlantirish uchun qo'llaniladigan tabletkalar tarkibidagi aktiv xlorlarni aniqlash.
17. Dala sharoitida suv va ovqat mahsulotlarining radioaktiv moddalar bilan zararlanganligini DP-5 asbobi yordamida tekshirish.
18. Dala sharoitida suv va ovqat mahsulotlarining zaharlovchi moddalar bilan zararlanganligini PXR-MV asbobi bilan aniqlash.

5. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

5.1. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

1. 1. Menyu taqsimoti bo'yicha shaxsiy ovqatlanishga baho berish.
2. Parhez ovqatlanish.
3. Bolalarda gipovitaminozlar, ularning profilaktikasi.
4. Ultrabinafsha nur etishmasligi va uning oldini olish.
5. Issiq iqlim sharoitlarida bolalarning termoregulyasiyasi.
6. Bolalarni chiniqtirish qoidalari.
7. Bolalarning jismoniy rivojlanishda orqada qolishi sabablari.
8. Bolalarda qomat buzilishi turlari, sabablari, oldini olish.
9. Bolalarda ko'rish buzilishi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi tashqi muhitning xavfli omillari, profilaktikasi.
10. Bolalarda raxit profilaktikasi.
11. Bolalarda oshqozon-ichak kasalliklari kelib chiqishida tashqi muhitning xavfli omillari.
12. Bolalarda yurak, qon-tomir kasalliklari kelib chiqishida tashqi muhit omillari ahamiyati, ularning profilaktikasi.
13. Bolalarda psixopatiya kelib chiqishida tashqi muhitning xavfli omillari.
14. O'zbekiston sharoitida temir etishmasligi anemiyasi, uning profilaktikasi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzluksiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi.

5.2. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Gigiena. Tibbiy ekologiya. Harbiy gigiena moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'tkaziladi.

Mustaqil ta'lim quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
 - talabanning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
 - faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
 - Grafik organayzerlarni ishlab chiqish va to'ldirish;
 - Krossvordlar tuzish va echish;
 - Prezantatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

Modul buyicha kurs ishi namunaviy uquv rejasida kuzda tutilmagan.

6. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari.

5-semestr yakunida

Talaba:

- vrachning turli xil kasalliklarining oldini olishdagi vazifalari;
- gigienaning maqsadi, vazifalarini, tashqi muhit omillarining ijtimoiy - maishiy sharoitlarning aholi salomatligini shakllantirishdagi ahamiyatini;
- bolalar va o'smirlar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari;
- maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar toliqish sabablari;
- bolalar va o'smirlar muassasalari qurilishiga qo'yiladigan gigienik talablar;
- bolalar va davolash muassasalaridagi mikroiklim, yoritish va insolyasiyasiga qo'yiladigan gigienik talablar, ular bilan bog'liq holda kelib chikishi mumkin bo'lgan kasalliklarni;
- bolalar va katta yoshdagi aholining ovqatlanishini tashkil qilish, ovqatlanish tartibi;
- maktab va bog'chalar jihozlariga qo'yiladigan gigienik talablari;
- maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy gigienasi;
- maktab vrachi ishining asosiy bo'limlari;
- gigienik me'yorlash va reglamentlash;
- sog'lom turmush tarzining targ'ib qilish
- harbiy gigiena haqida tushuncha;
- qurolli kuchlardagi sanitariya nazorati va gigienik ta'minotlar xaqida;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi Sanitariya nazorati kuchlari va vositalari;
- qo'shinlarning sanitar-epidemiologik xotirjamligini ta'minlashning asosiy prinsiplari;
- tinchlik va harbiy vaziyatlarda gigienik tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish;
- Qurolli Kuchlardagi sanitariya nazoratini o'tkazishda foydalaniladigan usullari haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;
- maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar toliqishning oldini olishni;

- bolalar va o'smirlar muassasalari qurilish loyihalariga qo'yiladigan gigienik talablarni;
- bolalar va davolash muassasalaridagi mikroiklim, yoritish va insolyasiyasiga qo'yiladigan gigienik talablarni;
- maktab va bog'chalar jihozlariga qo'yiladigan gigienik talablar va ularni baholashni;
- maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy gigienasini;
- tashqi muhit omillarini gigienik baholashni;
- maktab vrachi ishining asosiy vazifalarini qurolli kuchlardagi sanitariya nazorati va gigienik ta'minotlar xaqida;
- O'zR QK sanitariya nazorati kuchlari va vositalarini;
- harbiy xizmatchilarning ovqatlanishini tashkil qilish va uning sanitariya nazoratini;
- qo'shnlarning suv ta'minoti va uning sanitariya nazoratini tashkil qilishning asoslarini;
- harbiy dala sharoitida tibbiy xizmat xodimining asosiy vazifalarini *bilishi va ulardan*

foydalana olishi;

- ovqatlanishning adekvatligini baholash;
 - kasalxona xonalarining mikroiklimni o'rganish va baholash;
 - kasalxona xonalari havosining antropogen kimyoviy ifloslanganligini tekshirish va baholash (karbonat angdrid gazi misolida);
 - kasalxona xonalarining tabiiy va sun'iy yoritilganlik holatini baholash;
 - ichimlik suvining zararsizlantirilish sifatini tekshirish va baholash;
 - aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari bo'yicha ishlarni o'tkazishni;
 - DPM larda davolovchi-himoyalovchi va sanitariya va epidemiologik tadbirlarni ta'minlash uchun sharoitlarni baholash;
 - bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini baholash (regressiya shkalasi, kompleks usuli, sentil shkalasi bo'yicha);
 - kasalliklarning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar berishni;
 - davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy xodimlarning salomatligini ta'minlovchi mehnat sharoitlarini tashkil qilish
 - dala sharoitida suv ta'minoti punktlarida suv sifatini yaxshilash ishlarini nazorat qilish;
 - ommaviy qirg'in qurollarini ishlatilgan hollarda suv va ovqat mahsulotlarini sanitariya nazoratini o'tkazish, dala sharoitida dezaktivatsiya va degazatsiya qilish sifatini nazorat qilish
- ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

- UK 1¹. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;
- UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;
- UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
- UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga taykompeyorlik;
- UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda sanitariya xizmat tekshiruvini o'tkazish va laborator instrumental tekshiruvlarga namunalarni olish;

UKK 1. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun o'g'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorlik;

UKK4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarni va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik.

KK1. Bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlashga, shu jumladan sog'lom turmush tarzini shakllantirishga sabablari va sharoitlarini aniqlashga qaratilgan chora-tadirlar majmuni amalga oshirish qobiliyati va tayyorligi, atrof-muhit omillarining bolalar sog'ligiga zararli ta'sirini bartaraf etish.

KK2. Kasallikni aniqlash uchun bemorlarning shikoyatlarini, anamnezidan olingan ma'lumotlarni, tekshiruv natijalarini, laboratoriya, instrumental, patologik-anatomik va boshqa tadqiqotlarini yig'ish va tahlil qilishga tayyorligi.

KK3. Kasalliklarning asosiy patologik holatlarini, alomatlarini, kasallik sindromlarini, kasalliklarning xalqaro statistik tasnifiga muvofiq nozologik shakllarini aniqlash qobiliyati.

KK4. Tositdan o'tkir kasalliklarga chalingan bolalarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishga tayyorligi, bemorning hayotiga tahdid solmaydigan va shoshilinch tibbiy yordamga muhtoj bo'lmagan surunkali kasalliklarning avj olgan vaqtida yordam ko'rsatish qobiliyati.

KK5. Xavf omillarini bartaraf etish va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish buyicha tushintirish ishlarini olib borish uchun tayyorligi

KK6. Dalillarga asoslangan tibbiyot asosida axborotni tahlil qilish va ommaviy ravishda namoyish etishga tayyorligi

KK7. Ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish qobiliyati.

7. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.

- Ma'ruza

- amaliy mashg'ulotlar

- Darsliklar, tarqatma materiallar, testlar, vaziyatli masalalar, uquv qullanmalar.

8. Kreditlarni olish uchun talablar.

Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.

9. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari.

9.1. Asosiy adabiyotlar

1. Iskandarova Sh.T., Salomova F.I., Abdulkadirova L., Sadullayeva X., Xasanova M.I. Gigiyena. Tibbiy ekologiya. Darslik. - Toshkent. 2018 y.

2. Iskandarova Sh.T., Xasanova M.I., Ikramova M.I. i dr. Руководство к практическим занятиям по общей гигиене. Учебник. Ташкент. Toshkent. Fan va ta'lim. 2013 y.

3. B.A.Duschanov, Sh.T.Iskandarova. Umumiy gigiyena. Darslik. -Toshkent. Kitob-jurnal. 2008 y.

9.2. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Мельниченко П.И. Гигиена с основами экологии человека. Учебник.
2. Кучма В.Р. Гигиена детей и подростков. Учебник. - Москва «ГЭОТАР-Медиа». 2008 г.
3. Большаков А.М. Руководство к лабораторным занятиям по общей гигиене. Учебное пособие. -Москва «ГЭОТАР-Медиа». 2004 г.
4. Методические рекомендации. Гигиена детей и подростков под редакцией проф. Ш.Т.Искандарова. Ташкент. 2003 г.
5. prof. Sh.T.Iskandarova taxririya ti ostida. Bolalar va o'smirlar gigiyenasidan uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2002 y.
6. Salixodjayev S.S.taxririya ti ostida. "Gigiyena", Darslik. - Toshkent. 2001y.
7. Румянцев Г.И. Гигиена. Учебник. Москва. 2001 г.

Qoraqlpog'iston tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Modulning o'quv dasturi Qoraqlpog'iston tibbiyot institutining
«__» _____ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i

D. N. Abdullaeva

10. Fan / modul uchun ma'sullar:

Ataxanova D.O. – Qoraqlpog'iston tibbiyot instituti, "Gigiyena va atrof muhit" kafedrasi mudiri, PhD;

Tursinbaev A.A. - Qoraqlpog'iston tibbiyot instituti, "Gigiyena va atrof muhit" kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

- | | |
|--------------------|---|
| Madreimov A. - | QTI, "Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya" kafedrasi professori, tibbiyot fanlari doktori |
| Absattarova V.K. - | Qoraqlpog'iston Respublikasi SEO va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig'i muovini, tibbiyot fanlari nomzodi. |